TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YUSUPOV ILXOMJON IBODILLAYEVICH

HUQUQIY ANIQLIK PRINSIPI: NAZARIY-HUQUQIY MASALALAR

12.00.01. – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi.
Huquqiy ta’limotlar tarixi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 34(043.5)(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YUSUPOV ILXOMJON IBODILLAYEVICH

HUQUQIY ANIQLIK PRINSIPI: NAZARIY-HUQUQIY MASALALAR

12.00.01. – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi.
Huquqiy ta’limotlar tarixi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1020-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Saydullayev Shaxzod Alixanovich,** yuridik fanlar nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Berdiyarov Shuxrat Namozboyevich,** yuridik fanlar doktori, professor
	Ruzmetov Xayrullo Ibodullayevich, yuridik fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Davlat va huquq instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 15-noyabr soat 14:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1436-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 27-oktabrda tarqatildi.

(2025-yil 27-oktabrdagi 29-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.R. Xakimov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F.B. Maxmudov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

I.R. Bekov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (DISSERTATSIYA ANNOTATSIYASI)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyodagi rivojlangan huquqiy davlatlarda demokratik prinsiplar hamda umuminsoniy qadriyatlarni amalda tatbiq etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yuridik amaliyotda huquqiy aniqlikni ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish hamda kafolatlash mexanizmi samaradorligini oshirishga keng e’tibor berilmoqda. BMT 2030-yilgacha erishilishi lozim bo‘lgan barqaror rivojlanish maqsadlarining 16-maqsadi “barqaror rivojlanish uchun tinchliksevar va inklyuziv jamiyatlarni rivojlantirish, hamma uchun adolatdan foydalanish imkoniyatini ta’minlash va barcha darajadagi samarali, hisobdor va inklyuziv institutlarni yaratish”ni ko‘zda tutadi[1]. BMT Taraqqiyot dasturining jahon mamlakatlarida demokratik boshqaruvni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borayotgan faoliyati ushbu sohadagi huquqiy asoslarni mustahkamlash zarurligini yanada kuchaytirmoqda[2]. “Venetsiya komissiyasi” tomonidan 2011-yil mart oyida tasdiqlangan “Huquq ustuvorligi” hisobotida huquqiy aniqlik prinsipi huquq ustuvorligining asosiy elementi sifatida e’tirof etilgan[3] bo‘lsa, Yevropa Inson Huquqlari Sudi o‘z qarorlarida huquqiy aniqlik prinsipini qonun ustuvorligi va inson huquqlarini himoya qilishning asosiy elementi sifatida e’tirof etib kelmoqda[4]. Bu holatlar mamlakatimizda huquqiy aniqlik prinsipini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etish hamda amaliyotda qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Jahonda huquqiy aniqlik prinsipini konstitutsiyaviy himoya qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish, qonunchilik texnikasi va huquqiy til aniqligini ta’minlash metodologiyasini takomillashtirish, huquqiy normalarni talqin qilishning yagona standartlarini yaratish, sud amaliyotida huquqiy aniqlikni ta’minlashning protsessual kafolatlarini kuchaytirish, raqamli texnologiyalar sharoitida huquqiy aniqlik talablarini huquqiy amaliyotga tatbiq qilish, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan huquqiy hujjatlarning aniqlik darajasini baholash mezonlarini belgilash, ma’muriy reglamentlar va qoidalarning aniqligi hamda bashorat qilina olish darajasini oshirish, huquqiy aniqlik prinsipini buzganlik uchun javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy aniqlikka bo‘lgan talabini sud himoyasi vositasi sifatida mustahkamlash bilan bog‘liq masalalar muhim tadqiqot yo‘nalishlari sifatida o‘rganilmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda huquqiy aniqlikni ta’minlash samaradorligini oshirish, huquq ijodkorligi sifatini yaxshilash, normativ-huquqiy hujjatlarning aniqligini ta’minlash, sudlov amaliyotida huquqiy normalarni bir xilda qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, “World Justice Project”ning 2023-yilgi huquq ustuvorligi

[1] BMTning 2030-yilgacha erishilishi lozim bo‘lgan barqaror rivojlanish maqsadlarining rasmiy veb-sahifasi. https://sdgs.un.org/goals/goal16.

[2] BMT Taraqqiyot dasturining jahon mamlakatlarida demokratik boshqaruvni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha rasmiy veb-sahifasi. https://www.un.org/ru/global-issues/democracy .

[3] Venice Commission, Report on the Rule of Law, CDL-AD(2011)003rev, Strasbourg, 2011, p.10. // https://rm.coe.int/1680700a61

[4] European Court of Human Rights, Guide on Article 7 of the European Convention on Human Rights, 2023, p.15. // https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG

reytingida mamlakatimiz 142 ta davlat orasida 78-o‘rinni egallagan bo‘lib[5], bu ko‘rsatkich huquqiy aniqlikni ta’minlash sohasida qo‘shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “qonun ustuvorligini ta’minlash, sudlov va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, ma’muriy islohotlarni chuqurlashtirish” ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan[6]. Mazkur vazifalar huquqiy aniqlik prinsipini nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etish, huquq ijodkorligi va yuridik amaliyoti sifatini oshirish, huquqiy aniqlikni amaliyotda samarali qo‘llash orqali inson huquqlarini kafolatlash hamda huquq ustuvorligini ta’minlash darajasini oshirishni dolzarb etib qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi (2021), “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi (2006), “Sudlar to‘g‘risida”gi (2021) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son, 2018-yil 8-avgustdagi “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5505-son farmonlari hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini ta’minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasida huquqiy aniqlik prinsipini yuridik amaliyotga ta’siri va bu borada amalga oshirilgan qonunchilikni takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot hamda izlanishlarni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil etish mumkin:

Birinchidan, milliy huquqshunoslik fanida huquqiy aniqlik prinsipiga oid ilmiy-nazariy masalalarning huquq ustuvorligi nuqtayi nazaridan o‘rganilganligini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, M. Axmedshayeva, I. Bekov, A. Karimov, I. Kudryavsev, X. Mamatov, A. Muxammadiyev, M. Najimov, J. Ne’matov, Z. Islamov, H. Odilqoriyev, A. Saidov, Sh. Saydullayev, B. Toshev, R. Xakimov, A. Xashimhonov, X. Xayitov, B. Xodjayev va boshqa olimlarning bu boradagi tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin[7].

Shuningdek, yuridik ilmida huquq prinsiplari va u bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar qilingan bo‘lib, ulardan biri

[5] “World Justice Project”ning O‘zbekiston bo‘yicha 2023-yilgi huquq ustuvorligi reytingining rasmiy veb-sahifasi. https://worldjusticeproject.org/sites/default/files/documents/Uzbekistan_1.pdf .

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son.

[7] Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

F.M. Muxitdinovning yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun “Jinoyat ishlarining sud muhokamasida tortishuvlik prinsipini amalga oshirish muammolari” mavzusida yozgan dissertatsiyasidir (1999). Shuningdek, A.A. Muxammadiyevning “Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqi tamoyillarining amal qilishi” (2006), G‘.K. Botirovning “Jinoyat qonunchiligini liberallashtirishda insonparvarlik prinsipi masalalari” (2006), D.Y. Xabibullayevning “Fuqarolik protsessual huquqining tamoyillari va ularni sud amaliyotida tatbiq etish muammolari” (2007), Sh.U. Yakubovning “O‘zbekiston huquqiy tizimida huquqiy qadriyat va tamoyillarning shakllanishi masalasi” (2008), N.I. Xayriyevning “Jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash prinsipini amalga oshirish muammolari” (2011), A.A. Muxammadiyevning “Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari” (2012), I.B. Djurayevning “Jinoyat ishlari yuritiladigan til prinsipi” (2012), A.Sh. Sodikovning “Norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotga qo‘yiladigan talablar va prinsiplar” (2021) hamda F.B. Maxmudovning “Davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishda adob-axloq prinsiplari” (2021) ilmiy tadqiqot ishlari ham misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, sud hokimiyatining mustaqilligi prinsipi masalalari B.M. Qosimovning yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida (2021), hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi X.U. Turdiyevning yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida (2021), murojaat qilish huquqini amalga oshirish va murojaatlarni ko‘rib chiqishning asosiy prinsiplari O.R. Fayziyevning doktorlik ishida (2021), huquqiy eksperiment o‘tkazishda aniq maqsadlilik xususiyati Sh.R. Xayitovning yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida (2022), normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekologik ekspertizadan o‘tkazish bosqichlari va asosiy prinsiplari masalasi Sh.X. Bahronovning (2022), sud hujjatlarining qonuniylik, asoslanganlik va adolatlilik prinsiplarining tahlili N.S. Pulatovaning (2022), jinoiy-huquqiy prinsiplarning nazariya va amaliyot masalalari A.I. Toshpulatovning (2023), fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtirokining asosiy prinsiplari B.P. Boymurodovning ilmiy izlanishlarida (2023) o‘z ifodasini topgan[8]. Biroq shu paytgacha milliy yuridik fanda huquqiy aniqlik prinsipiga oid nazariy masalalar yaxlit monografik planda o‘rganilmagan.

Ikkinchidan, MDHga davlatlari olimlari A.A. Ivanov, A.V. Demin, A.V. Malko, A.S. Kosach, V.V. Yershov, V.M. Baranov, V.N. Kartashov, V.N. Kudryavsev, G.A. Gadjiyev, G.S. Kelina, Y.V. Vaskovskiy, I.A. Pokrovskiy, I.S. Dakaryev, M.V. Presnyakov, N.A. Arapov, N.A. Vlasenko, N.I. Matuzov, N.S. Bondar, R.K. Rusinov, S.A. Ivanov, S.V. Potapenko, S.Y. Bodrov, S.S. Alekseyev, T.N. Nazarenko, Y.A. Tixomirov, Y.N. Starilovlar[9] tomonidan huquqiy aniqlik prinsipi muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lishiga qaramasdan, roman-german huquq oilasiga mansub mamlakatlarda sudlarning huquqni qo‘llashda huquqiy aniqlikka rioya qilish masalalari to‘laqonli tadqiq etilmagan.

[8] Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.
[9] Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

Uchinchidan, AQSh, Yevropa va Lotin Amerikasi davlatlari olimlaridan Alberto Xavier, Andreas von Arnauld, Anne-Laure Valembois, Arcos Ramírez, Barros Carvalho, Benjamin Cardozo, Bernd Mertens, Christoph Gusy, Eros Roberto Grau, Federico Arcos Ramnez, Ferrero Lapatza, Franz Scholz, Friedrich Carl von Savigny, Gianmarco Gometz, Guido Alpa, J.Meyer, J.Mezquita de Cacho, Jerome Frank, Katharina Sobota, Misabel de Abreu Machado Derzi, Oscar Adolf Germann, Philip Kunig, S.J. Shapiro, Stefano Bertea, Vom Beru, Willy Zimmer, W. Blackstonelar[10] huquqiy aniqlik prinsipini huquq ustuvorligi hamda qonuniylik prinsipining tarkibiy qismi sifatida o‘rgangan bo‘lib, mamlakatimizda esa mazkur prinsip borasida mavjud muammolarga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, huquqiy aniqlik prinsipini huquq ijodkorligiga tatbiq etish hamda yuridik amaliyotda qo‘llash samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalari O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi, shuningdek, ilg‘or xorij tajribalar asosida kompleks tadqiq etilishi kerak.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot mavzusi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida insonning fundamental huquqlarini ta’minlashni takomillashtirish” mavzusidagi ish rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi huquqiy aniqlik prinsipini ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan kompleks tadqiq etish va ushbu sohadagi qonun hujjatlari hamda huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Dissertatsiya ishining vazifalari:

huquqiy aniqlik prinsipining mazmuni hamda xususiyatlarini tahlil etish;

“huquqiy aniqlik” va “noaniqlik” tushunchasi hamda ularning yuridik tabiatini ilmiy tadqiq qilish;

huquqiy aniqlik prinsipining funksiyalarini atroflicha yoritib berish;

huquqiy aniqlik prinsipining normativ-huquqiy asoslarini ko‘rsatib berish;

huquq ustuvorligi va huquqiy aniqlik prinsipining o‘zaro nisbatini ilmiy tadqiq etish;

huquqiy aniqlik prinsipini huquqni qo‘llashdagi ahamiyatini tahlil etish;

huquqiy aniqlik prinsipi borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib chiqish;

O‘zbekiston Respublikasida huquqiy aniqlik prinsipini tahlil etish orqali tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasida huquqiy aniqlik prinsipini tushunish va huquqiy amaliyotga tatbiq qilish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasida huquqiy aniqlik prinsipini amalga oshirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, ilg‘or xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi va yuridik amaliyoti, xalqaro

[10] Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

umume'tirof etilgan standartlar, ilmiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy-huquqiy, mantiqiy, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, huquqiy modellashtirish hamda ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqobatga ta'sirni baholash sohasida vakolatli organning nazorat funksiyasini kuchaytirish va huquqiy normalarga oid aniqlik kiritish mexanizmini takomillashtirish maqsadida vakolatli organga raqobatga ta'sirni baholash to‘g‘risidagi hujjatlarning normalariga aniqlik kiritish va ular bo‘yicha tegishli tushuntirishlar olish huquqini taqdim etish zarurligi asoslab berilgan;

normativ-huquqiy hujjatlarga oid axborotlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda jamoatchilik tomonidan huquqiy normalarga erishish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar matnlari va ularni tushuntirishga qaratilgan materiallarning Yagona huquqiy axborot almashish tizimi orqali yetkazish mexanizmini joriy etish zarurligi asoslangan;

ilmiy ekspertiza sifatini oshirish va normativ-huquqiy hujjatlarning istiqboldagi samaradorligini ta'minlash maqsadida ilmiy ekspertizani o‘tkazish davomida aniqlangan, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa masalalar tahlilini ekspertiza xulosalariga kiritish zarurligi asoslab berilgan.

ilmiy ekspertiza xulosalarining sifati va aniqligini oshirish hamda tashkilotlar o‘rtasida samarali o‘zaro hamkorlik mexanizmini yaratish maqsadida normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organga ilmiy ekspertizani o‘tkazgan tashkilotga xulosada berilgan taklif, e'tiroz, fikr-mulohazalarga aniqlik kiritish uchun so‘rov yuborish vakolatini taqdim etish zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

huquqiy aniqlik prinsipining milliy huquq tizimidagi o‘rni va ahamiyatini hisobga olgan holda uning kompleks ta'rifi ishlab chiqildi, bunda prinsipning moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy jihatlari uyg‘unligi ta'minlandi;

huquqiy aniqlik prinsipining o‘ziga xos xususiyatlari – normativlik, barqarorlik, bashorat qilina olish, tushunarlilik va izchillik kabi muhim belgilari ochib berildi;

huquqiy aniqlik prinsipi qonun normalarining aniq, bir ma'noli ifodalanishini taqozo qilishi hamda huquqiy munosabatlarni tartibga solishda normalar o‘rtasidagi ziddiyat va kolliziyalarni bartaraf etish mexanizmlari asoslab berildi;

huquqiy aniqlik prinsipining norma ijodkorligi sifatini oshirish, huquqni qo‘llash amaliyotining yagonaligini ta'minlash, sud qarorlarining barqarorligini mustahkamlash hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishdagi funksional ahamiyati ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilindi;

huquqiy aniqlik prinsipining konstitutsiyaviy kafolat sifatidagi mohiyati, uning inson huquqlarini ta'minlashdagi protsessual va institutsional mexanizmlari yoritib berildi;

huquqiy aniqlik prinsipining ideal huquqiy tartibga solish modeli sifatida namoyon bo‘lishi, fuqarolarning huquqiy xatti-harakatlarini rejalashtirish va oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini yaratishdagi roli asoslandi;

huquqiy aniqlik prinsipining yuridik tabiati, uning boshqa huquqiy prinsiplar – qonuniylik, adolatlilik, tenglik prinsiplari bilan o‘zaro aloqadorligi kompleks ravishda ochib berildi;

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga huquqiy aniqlik prinsipini mustahkamlashga qaratilgan aniq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o‘z aksini topgan umumnazariy xulosalar, qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar nazariy qarashlarni va milliy qonunchilik normalarini hamda huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish orqali asoslantirilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llangan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, xalqaro tajriba, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik manbalari o‘zaro tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo‘llanayotganligi, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilinganligi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan huquqiy aniqlik prinsipini tatbiq qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda “Konstitutsiyaviy huquq”, “Davlat va huquq nazariyasi”, “Norma ijodkorligi”, “Yuridik texnika” fanlarini o‘qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasida huquqiy aniqlik prinsipini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, huquq ijodkorligi subyektlari faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. huquqiy aniqlik prinsipinining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

vakolatli organ raqobatga ta’sirni baholash to‘g‘risidagi hujjatlarning normalariga aniqlik kiritishga va ular bo‘yicha tegishli tushuntirishlar olishga haqli degan taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 694-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining raqobatga ta’sirini baholash tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 22-bandi 3-xatboshisini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Yuridik ta’minlash boshqarmasining 2024-yil 7-noyabrdagi 12-15-80-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi raqobatga ta’sirni baholash to‘g‘risidagi hujjatlarning normalariga aniqlik kiritishga va ular bo‘yicha tegishli tushuntirishlar olishga bo‘lgan huquqlarga aniqlik kiritishga xizmat qiladi;

normativ-huquqiy hujjatlar matnlari va ularni tushuntirishga qaratilgan materiallarning Yagona huquqiy axborot almashish tizimi orqali yetkazishni joriy etishga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 588-son qarori bilan tasdiqlangan “2024–2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ning 37-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Yuridik ta’minlash boshqarmasining 2024-yil 7-noyabrdagi 12-15-80-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi normativ-huquqiy hujjatlar matnlari va ularni tushuntirishga qaratilgan materiallarning Yagona huquqiy axborot almashish tizimi orqali yetkazishni joriy etishga xizmat qiladi;

ilmiy ekspertizani o‘tkazish davomida aniqlangan, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa masalalar tahlili aks etishi lozimligiga oid taklif Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-yanvardagi 29-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 16-bandi 8-xatboshisini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash deportamentining 2025-yil 26-apreldagi 30-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi normativ-huquqiy hujjatlarning ilmiy ekspertizasini o‘tkazish davomida aniqlangan, istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli holatlarning tahliliga xizmat qiladi;

normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organ ilmiy ekspertizani o‘tkazgan tashkilotga xulosada berilgan taklif, e’tiroz, fikr-mulohazalarga aniqlik kiritish maqsadida so‘rov yuborishi mumkin ekanligiga oid taklifi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-yanvardagi 29-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 23-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash deportamentining 2025-yil 26-apreldagi 30-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organning ilmiy ekspertizani o‘tkazgan tashkilotga xulosada bildirilgan taklif, e’tiroz va fikr-mulohazalarga aniqlik kiritish maqsadida so‘rov yuborish vakolatini aniq belgilab beradi.

Tadqiqot ishi natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjuman, jumladan, 2 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari, davra suhbatlari va seminarlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda 5 ta va xorijiy ilmiy jurnallarda 8 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 8 paragrafdan iborat uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Huquqiy aniqlik prinsipining nazariy-metodologik jihatlari**” deb nomlanib, unda huquqiy aniqlik prinsipining mazmuni va xususiyatlari, huquqdagi aniqlik va noaniqlik tushunchalari hamda ularning yuridik tabiati, shuningdek, huquqiy aniqlik prinsipining funksiyalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi milliy yuridik fanda huquq ustuvorligi nuqtayi nazaridan huquqiy aniqlik prinsipi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy masalalarni tahlil qilishda ko‘plab olimlarning A. Karimov, A. Saidov, B. Toshev, B. Xodjayev, J. Ne’matov, I. Kudryavsev, M. Axmedshayeva, M. Najimov, R. Xakimov, S. Muxammadiyev, X. Mamatov, X. Xayitov, H. Odilqoriyev, Sh. Saydullayev, F.M. Muxitdinov, A.A. Muxammadiyev, G‘.K. Botirovning, D.Y. Xabibullayev, Sh.U. Yakubov, N.I. Xayriyev, A.A. Muxammadiyev, I.B. Djurayev, A.Sh. Sodikov, B.M. Qosimov, MDHga a’zo mamlakatlar olimlari A.A. Ivanov, A.V. Demin, A.V. Malko, A.S. Kosach, V.V. Yershov, V.M. Baranov, V.N. Kartashov, V.N. Kudryavsev, G.A. Gadjiyev, G.S. Kelina, Y.V. Vaskovskiy, I.A. Pokrovskiy, I.S. Dakarev, M.V. Presnyakov, N.A. Arapov, N.A. Vlasenko, N.I. Matuzov, N.S. Bondar, R.K. Rusinov, S.A. Ivanov, S.V. Potapenko, S.Y. Bodrovlar S.S. Alekseyev, T.N. Nazarenko, Y.A. Tixomirov, Y.N. Starilovlar tomonidan huquqiy aniqlik prinsipi muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lishiga qaramasdan, roman-german huquq oilasiga mansub mamlakatlarda sudlar tomonidan huquqiy pretsedentlarni qo‘llashda huquqiy aniqlikka rioya qilish masalalari to‘laqonli tadqiq etilmagan.

Bundan tashqari, AQSh, Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlari olimlari Alberto Xavier, Andreas von Arnauld, Anne-Laure Valembois, Arcos Ramírez, Barros Carvalho, Benjamin Cardozo, Bernd Mertens, Christoph Gusy, Eros Roberto Grau, Federico Arcos Ramnez, Ferrero Lapatza, Franz Scholz, Friedrich Carl von Savigny, Gianmarco Gometz, Guido Alpa, J. Meyer, J.Mezquita de Cacho, Jerome Frank, Katharina Sobota, Misabel de Abreu Machado Derzi, Oscar Adolf Germann, Philip Kunig, S.J. Shapiro, Stefano Bertea, Vom Beru, Willy Zimmer, W. Blackstonelarning fikrlari tahlili asosida “huquqiy aniqlik prinsipi” tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifini ishlab chiqilgan:

“Huquqiy aniqlik prinsipi – huquq ustunligini ta’minlash vositasi sifatida yuridik amaliyotda, jumladan, qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash faoliyatida,

huquq normasi va huquqiy qarorlarning adolatli bo‘lishi uchun aniq, izchil va to‘laqonli bo‘lishini ta’minlovchi bosh g‘oyaviy qoidadir”.

Shuningdek, huquqiy aniqlik prinsipining xususiyatlari bayon etilgan, xususan:

normativ-huquqiy hujjatlarning aniq va bir xilda tushunish;

normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo‘llash hujjatlarining tegishli tartibda oshkora e’lon qilinganligi;

huquqni qo‘llash hujjatlarining aniq va ijroga qat’iy qaratilganligi;

huquqiy manfaatlarning ishonchliligi va barqarorligini qaror toptirish hamda normativ-huquqiy hujjatlar orqaga qaytish kuchining cheklanishi.

Shu bilan birga, huquqiy aniqlik prinsipi haqida quyidagi xulosalarga kelingan:

huquqning belgilovchi elementi ekanligini tushunish, huquq normalarni yaratish va amalga oshirishda huquqiy aniqlik prinsipining ahamiyatiga asoslanadi. Shu ma’noda, huquqiy aniqlik belgilovchi element sifatida uning huquqiy prinsip sifatida ilmiy ahamiyatga ega bo‘lishini nazarda tutadi. Bu kuzatishlar huquqiy aniqlikni tahlil qilishning bir necha usullarini farqlash, ularning aniq munosabatini yoki hatto semantik o‘zaro bog‘liqligini bartaraf etmasligini va aksincha, mazkur uch tushunchaning o‘zaro bog‘liqligi ularning farqlanishiga to‘sqinlik qilmasligini ta’kidlash uchun mo‘ljallanganligini ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi barcha kuzatishlar shuni ko‘rsatishga qaratilganki, huquqiy aniqlik bir xil obyektni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishda, bir xil qarash mumkinligiga ishonish, shuningdek, obyektni va tahlil qilinadigan nuqtayi nazarni chegaralash va uni samarali tushunishning ajralmas shartidir.

Mazkur tadqiqot ishida huquqiy aniqlik, birinchi navbatda, prinsip sifatida, ya’ni qonun chiqaruvchi, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlariga yo‘naltirilgan ko‘rsatma sifatida, ikkinchidan, huquqiy tartibning ishonchliligi va barqarorligiga xizmat qiluvchi omil sifatida tadqiq etilgan hamda uning yuridik amaliyotdagi o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Jumladan, yuridik amaliyotda huquqni qo‘llash qarorlaridagi “ex tunc” (oldingi) avvalgi huquq normalarini va ularni qo‘llash samaradorligi qoidasiga e’tibor bermaslik huquqiy munosabatlarga “qancha miqdordagi” noaniqliklarga sabab bo‘lishi milliy-ilmiy adabiyotlarda yoki huquqiy monitoringda “o‘lchanmagan”. Shuning uchun ham huquqiy aniqlikning o‘lchov birliklarini joriy etish amaliyotdagi ayrim ziddiyat va kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, huquqiy aniqlik prinsipining huquqiy samaradorligi ikkita asosiy masalasini o‘z ichiga oladi. Birinchisi, uning normativ funksiyasiga, ya’ni boshqa me’yorlarga yoki inson xatti-harakatlariga nisbatan ta’sirlarni ishlab chiqarish usuli bilan bog‘liq. Ikkinchisi uning normativ kuchiga, ya’ni boshqa normativ qoidalarga qarama-qarshilikda qanday chora qo‘llashga taalluqlidir.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillarni umumlashtirgan holda, huquqiy aniqlik prinsipining yuridik tabiati quyidagilarda namoyon bo‘lishi to‘g‘risidagi yaxlit xulosaga kelingan:

1) huquqiy aniqlik boshqa huquq prinsiplar bilan bir qatorda turli ma’noda tushunish mumkin bo‘lgan kategoriyadir;

2) huquqiy aniqlik prinsipi milliy huquq tizimi va boshqa huquq oilalarining obyektiv qonuniyatlari va mohiyatini aks ettiruvchi, huquq ijodkorligi va yuridik amaliyotda barqarorlik va bir xillikka erishish vositasidir;

3) huquqiy munosabatlarga ishonch va barqarorlik ta'minlovchi huquqiy kategoriya sifatida huquqning sifat holatini obyektiv ravishda tavsiflaydi;

4) integrativ huquqiy tushunish nuqtayi nazaridan huquq normalarini qo'llash tizimini erkinlashtirishga zamin yaratadi;

5) huquqning noaniqlikdan huquqning aniqlikka uzluksiz harakat qilishning obyektiv zarurati uning huquqni qo'llash organlari va shaxslar tomonidan dinamik huquqiy munosabatlar tabiatiga qat'iy bog'liq;

6) huquq aniqligining muhim belgisi sifatida uning mutlaq yoki nisbiyligi muhim belgi bo'lib, aniqlikning miqdoriy o'lchovlarini huquq ijodkori tomonidan joriy etishni taqozo etadi;

7) integrativ huquqiy tushunish nuqtayi nazaridan huquqiy aniqlik nafaqat moddiy huquqning aniqligi, balki protsessual huquqning aniqligini ham taqozo etadi;

8) huquqni qo'llash hujjatlari ayniqsa, sud hujjatlarini qayta ko'rib chiqishda huquqiy aniqlikka bo'lgan yakdil yondashuvni yaratib bo'lmasligi;

9) huquqiy pozitivizm nuqtayi nazaridan tushunish huquqning noaniqligidan huquqning aniqligiga doimiy harakatini nazariy jihatdan asoslab bo'lmaydi va bunday ish amalda samarasizdir;

10) huquqiy aniqlik prinsipi nafaqat huquqni qo'llash jarayonidagi aniqlik, balki huquq ijodkorligida ham talab etiladigan obyektiv zarurat hisoblanadi.

Ma'lumki, huquqiy aniqlik prinsipining o'ziga xos huquq prinsipi sifatidagi funksiyalari nuqtayi nazaridan biz uning huquqiy tartibga solishga qanday ta'sir ko'rsatishi, uning huquq tizimidagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Xususan, huquqiy aniqlik prinsipining mohiyatini to'laqonli anglash va tahlil etish uchun uning turli huquq maktablaridagi ahamiyati va mazmuniga diqqat qaratish zaruratini taqozo etadi.

Tabiiy huquq maktabi tarafdorlari huquqiy aniqlik bo'yicha asosiy e'tiborni huquqning obyektivligiga, uning huquq ijodkorining (normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organ va mansabdor shaxslar) irodasidan mustaqilligiga qaratadi.

Integral yondashuv nuqtayi nazaridan, huquq tegishli huquq normalari va prinsiplar tizimidir. Ular davlatning obyektiv ravishda belgilangan irodasini yoki jamiyat tomonidan rivojlanishning ko'p asrlik tajribasi natijasida ishlab chiqilgan axloqiy asoslar, ya'ni prinsiplarni belgilaydi.

Huquqda munosabatlarni tartibga solishning ikkita mustaqil vositasi, huquq normalari va prinsiplari mavjudligi ularning ham funksiyalarga ega bo'lishini inkor etmaydi.

Milliy huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil etilgan holda, huquqiy aniqlik prinsipining funksiyalari haqida quyidagi fikrlar ilgari surilgan:

huquqning boshqa prinsiplari bilan bir qatorda, huquqiy aniqlik prinsipi ham tartibga solish funksiyasidan keng foydalanadi.

Huquqiy aniqlik prinsipining barqarorlashtirish funksiyasi huquq va majburiyatlarni individuallashtirish va konkretlashtirish, shuningdek, huquqni qo‘llash va amalga oshirish bosqichlari uchun umumiydir.

Huquqni qo‘llash bosqichida huquqiy aniqlik prinsipining tartibga soluvchi roli, qonunning barcha prinsiplariga xos bo‘lgan funksiyalarni bajarishda ham, ya’ni talqin qilish, shuningdek, bo‘shliqlarni bartaraf etishda namoyon bo‘ladi.

Huquqiy aniqlik prinsipining sharhlash funksiyasining misoli sifatida keltirish mumkin.

Huquqiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy aniqlik prinsipining regulyativ funksiyasini amalga kiritishda sud pretsedentini mamlakatimizda joriy etish istiqbollarini tadqiq etish lozim.

Shu bilan birga, huquqiy aniqlik prinsipining alohida funksiyasi sifatida normativ nazorat funksiyasini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning “**Huquqiy aniqlik prinsipining huquqni qo‘llashda tutgan o‘rni**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotchi tomonidan huquqshunos olimlarning mavzuga oid fikr-mulohazalarini tahlil etish bilan birga, huquqiy aniqlik prinsipining normativ-huquqiy asoslari, huquqiy aniqlik prinsipi – huquq ustuvorligining talabi sifatida namoyon bo‘lishini, huquqiy aniqlik prinsipini huquqni qo‘llashdagi ahamiyati kabi masalalarni tadqiq etishda mustaqil xulosalarga kelingan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” Qonunida “prinsip” so‘zi 8 marta qo‘llangan bo‘lsa-da, huquqiy aniqlik prinsipi haqida ma’lumot keltirilmagan. Holbuki, normativ-huquqiy hujjatlar mazkur prinsip talablariga javob berishi korrupsiyaga qarshi ekspertizada tekshirilishi qat’iy belgilangan bo‘lsa-da, bu boradagi asosiy qonunda huquqiy aniqlik masalasi ochiq qolganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, ushbu dissertatsiyaning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, yuqorida qayd etilgan qonunning 5-moddasini quyidagi tahrirda ifodalash taklifi ilgari surilgan:

“Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

konstitutsiyaviylik;

qonuniylik;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish hamda ularning ustuvorligi;

oshkoralik;

ilmiylik;

ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning tizimliligi va komplekslilig;

huquqiy aniqlik;

ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning barqarorligi”.

Bundan tashqari, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida “prinsip” so‘zi 2 marta qo‘llangan bo‘lib, 13- va 15-moddalarda xalqaro shartnomalarining prinsiplari (13-modda) hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari (15-modda) nazarda tutilganligi

va qonun loyihalarini tayyorlash bo‘yicha asosiy bo‘lgan mazkur qonunga huquqiy aniqlik prinsipini kiritish maqsadga muvofiqligi bayon etilgan:

“**20-modda. Qonun loyihasi bayoniga taalluqli talablar**

Qonun loyihasi huquqiy aniqlik prinsipi asosida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning, barqarorligi, tizimliligi va komplekslilig talablariga javob berishi shart.

Qonun loyihasi lo‘nda, aniq, oddiy va ravon tilda, normalarni turlicha izohlashni istisno etadigan tarzda yuridik atamashunoslikka rioya qilingan holda bayon qilinadi. Eskirgan hamda ko‘p ma’noni anglatadigan so‘zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar qo‘llanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonun loyihasi matnidagi jumlalar haddan tashqari uzun bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi”.

Shu bilan birga, huquqiy aniqlik prinsipi huquqni qo‘llash jarayonida qo‘llanishi huquqni qo‘llovchi subyekt tomonidan qonuniylik va huquq ustunligini ta’minlashga xizmat qilishi, ayniqsa, sud hokimiyatining mavqeyini oshirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashga zamin yaratadi. Xususan, mamlakatimizda huquqiy pretsedentdan huquq manbasi sifatida foydalanish amaliyotiga o‘tish, ayrim salbiy jihatlariga ega bo‘lishiga qaramay, huquq ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish uchun xizmat qilishi alohida ta’kidlanadi.

Shuningdek, huquqni qo‘llovchi shaxs uchun qonun ustuvorligi aniq bo‘lishi muhim, u huquqni emas, balki ma’lum bir huquq normasini qo‘llaydi va u huquqning o‘ziga emas, balki huquq normasining aniqligiga muhtoj, chunki bahsli munosabatlarni faqat ma’lum bir huquq normasi bilan tartibga solish mumkinligi, agar bunday bo‘lmasa, u holda huquqni qo‘llovchi shaxs noaniq huquq normalarini yoki Oliy Sud Plenumining qarorlarini qo‘llashning aniq sud amaliyotiga murojaat qilishi hamda huquqiy aniqlik prinsipi huquqni qo‘llash jarayonida qo‘llanishi huquqni qo‘llovchi subyekt tomonidan qonuniylik va huquq ustunligini ta’minlashga xizmat qilishi, ayniqsa, sud hokimiyatining mavqeyini oshirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashga zamin yaratishi, xususan, huquqiy pretsedentni mamlakatimizda huquq manbasi sifatida foydalanish amaliyotiga o‘tish o‘zining bir qancha ijobiy jihatlari bilan birga ayrim salbiy xususiyatlariga ega bo‘lsa-da, huquq ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning “**Huquqiy aniqlik prinsipini yuridik amaliyotda joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida huquqiy aniqlik prinsipi borasida ilg‘or xorijiy tajriba va O‘zbekistonda huquqiy aniqlik prinsipini yuridik amaliyotda joriy etish muammolarini tahlil qilish asosida xorijiy mamlakatlardagi huquqiy aniqlikka oid o‘ziga xos tajribalar o‘rganilgan hamda respublikamiz yuridik amaliyotida ushbu prinsipni joriy etish masalalari atroflicha tahlil qilingan va quyidagi xulosalarga kelingan:

Huquqiy aniqlik va ziddiyatli vaziyatlar qonunchilikda yoki yuridik amaliyotga uchrashi tan olinishi, bunday holatlarda noaniqliklar shaxslar foydasiga hal etilishi belgilangan bo‘lishiga qaramasdan, ularning oldini olish yoki sudlar

tomonidan ularni bartaraf etish mexanizmlari to‘liq tartibga solinmaganligi hamda huquqiy aniqlik prinsipini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning quyidagi muammolarini keltirib o‘tilgan:

birinchidan, huquqiy tizim va qonunchilikning o‘ziga xos ekanligi, ya’ni mamlakatimizning qonunchilik bazasi murakkab bo‘lib, huquqiy aniqlikdan huquq manbasi sifatida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, qonunlar va me’yoriy hujjatlarning juda ko‘pligi chalkashliklarni keltirib chiqarishi va huquqiy aniqlik tamoyilini qo‘llashga to‘sqinlik qilishi mumkin;

ikkinchidan, huquqiy aniqlik asosan huquqni qo‘llovchi subyektlar tomonidan amalga oshirilishini inobatga olgan holda ma’muriy organlar va sudlar tomonidan qonunlarni talqin qilish va qo‘llash turlicha bo‘lishi mumkin. Huquqiy talqinlarda bir xillikning yo‘qligi huquqiy aniqlikka putur yetkazishi mumkin, chunki shaxslar shunga o‘xshash ishlar bo‘yicha turli natijalarni olishlari mumkin;

uchinchidan, huquqiy ong va huquqiy madaniyatga bog‘liq muammolar bo‘lib, vakolatli mansabdor shaxslarning bu boradagi fikr-mulohazalarini o‘zgartirish orqali huquqiy aniqlik mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilishiga ishonchni yaratish talab etiladi. Islohotlarni yuqori darajadagi mansabdor shaxslardan boshlamas ekanmiz, quyi turuvchi mansabdor shaxslar tomonidan bu borada amaliy natijalarga erishish dargumondir;

to‘rtinchidan, yuridik amaliyotda huquqiy noaniqliklarning mavjudligi, korrupsion xavflar keltirib chiqarishi mumkinligi nazarda tutiladi. Zero, korrupsion omillarning nomaqbul ta’sir holatlari huquqiy tizimning yaxlitligi va adolatliligiga putur yetkazishi hamda fuqarolar ishonchini yo‘qotishiga olib kelishi kerak.

Bu xususida ilg‘or xorijiy tajribaga murojaat qilgan holda dissertant tomonidan quyidagi fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan:

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi xulosalariga asosan, qonun ustuvorligining asosiy jihatlaridan biri huquqning aniqligi prinsipidir.

Yevropa yuridik adabiyotlarida “huquqiy aniqlik” tushunchasi huquqiy xavfsizlik “legal security” deb ataladigan tushuncha bilan yonma-yon keladi.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi faoliyati milliy qonunchilik hujjatlarning huquqiy aniqlik talablaridan kelib chiqishini qayd etadi.

Xususan, konvensiyada belgilanishicha, “normativ-huquqiy hujjat fuqaro uchun huquqiy xulq-atvor va uning oqibatlari uchun yo‘l-yo‘riq sifatida mavjud bo‘lishi va muayyan holatda qo‘llanadigan huquq normalarni hisobga olgan holda yetarli bo‘lishi kerak”.

Huquqiy aniqlik prinsipini qonun ijodkorligi faoliyati sohasida qo‘llash asosiy huquq normalarning yuqori sifatini ta’minlashga va natijada butun huquq tizimining samaradorligini ta’minlashga qaratilgan.

Bu borada huquqiy aniqlik prinsipi yuzasidan ilg‘or xorijiy tajribaga murojaat qilib, Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan Asosiy qonun bo‘lgan Konstitutsiyaga zid keladigan har qanday qonunni nomuvofiq deb topish uchun huquqiy aniqlik prinsipidan foydalanilishi, ushbu holatda huquqiy aniqlik fuqarolarning erkinliklarini cheklash uchun emas, balki ularning huquqlarini himoya qilishga xizmat qilishi e’tirof etilgan va yuqorida keltirib o‘tilgan xulosadan

kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi yuridik amaliyotida ham shunday holatlar yuzaga keladigan bo‘lsa, Konstitutsiyaviy sud masalani huquqiy aniqlik prinsipiga asoslanib hal qilishi maqsadga muvofiq bo‘lishi qayd etilgan.

Shuningdek, roman-german huquq oilasiga mansub mamlakatlar, xususan Braziliya, GFR va Ispaniyada huquqiy aniqlik prinsipidan ham huquq ijodkorligida ham huquqni qo‘llashda foydalanilishdagi tajribalardan kelib chiqib, mamlakatimizda ham huquq ijodkorligida va huquqni qo‘llashda mazkur prinsipdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqligi taklifi keltirib o‘tilgan.

Shu bilan birga, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi ishlari, xalqaro konvensiya va xalqaro umume’tirof etilgan xalqaro shartnomalarda huquqiy aniqlik prinsipi huquq ustunligini ta’minlashda, inson huquqlarini kafolatlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini, huquqiy aniqlik prinsipi ham huquq normasini ijod qilish ham huquqni qo‘llashda foydalanilishi e’tirof etilgan.

XULOSA

Huquqiy aniqlik prinsipi masalasini ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil etish hamda tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etish natijalari quyidagi xulosalarga kelishga, shuningdek, normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ilgari surishga xizmat qildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

